

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZEUGMA: TAHLIL VA TALQIN

To‘ychiyeva Zebiniso Farhod qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti, O‘qituvchi

E-mail: zebinisotoychiyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Adabiyotning rang-barang olami haqida gap ketganda, biz uchratishimiz mumkin bo‘lgan eng ko‘p uchraydigan atamalardan biri bu zeugmadir. Bu qandaydir ekzotik qush yoki noyob o‘simlik turi emas balki, aslida bu nutqimizga, yozish uslubimizga o‘ziga xos ta’sirchanlik qo‘shishi mumkin bo‘lgan nutq birligidir. Ushbu maqolada, ingliz va o‘zbek tillarida zeugmaning qo‘llanilish doirasi, uning qanday ishlatilishi va nima uchun kundalik til va adabiyotda muhim ekanligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Zeugma, stilistik vosita, sillepsis, ritorika, so‘z o‘yini.

ABSTRACT

When it comes to the colorful world of literature, one of the most common terms we come across is zeugma. It is not an exotic bird or a rare plant species, but actually it is a speech unit that can add a special effect to our speech and writing style. This article explains the scope of use of zeugma in English and Uzbek languages, how it is used and why it is important in everyday language and literature.

Keywords: Zeugma, a stylistic device, syllepsis, rhetoric, a pun, mass media.

KIRISH

Zeugma - bu qiziqarli ritorik vosita, muhim nutq figurasi hisoblanib, unda bitta to‘g‘ridan-to‘g‘ri metaforik ohanglarga to‘la so‘z jumlani, ikki yoki undan ortiq so‘zni ifodalash uchun ishlatiladi va ko‘pgina boshqa nutq shakllari singari, bu ritorik vosita ham o‘z nomini yunoncha “zeugma” so‘zidan olgan bo‘lib, ya’ni “bo‘ysintirish” yoki “bog‘lanish” ma’nosini anglatadi. Zeugmaning o‘ziga xos jihati shundaki, fe’l bir nechta ot yoki sifat bilan bog‘lanib, bitta fikrni hosil qiladi va so‘z o‘yini yasaydi.

Zeugma fe’l vazifasini bajarib, gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘lab, grammatik bog‘lovchi vazifasini bajaradi, adabiy asarlar va nutqni yanada ta’sirli qilishga yordam beradi. Qolaversa, gapni hissiy bo‘yoqdorligini oshirib, ta’kidlab, uning go‘zalligiga hissa qo‘shadi. Zeugmaning eng ko‘p namunalari XV asr ingliz adabiy asarlarida uchraydi, yozuvchi va shoirlar bu ritorik vositadan uzun asarga soddalik yoki jonlilik kiritish, syujetni aniq qurish yoki syujetda qo‘llanilgan elementlar orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatish uchun foydalanganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yozma manbalar, zeugma qadimgi yunon-rim madaniyatiga borib taqalishi haqida ma'lumot beradi. Homer, Virjil va Sitseron o'zining asarlarida zeugmadan mohirona foydalangan. Xususan, "Iliada" ning 5-qismida Homer shunday deydi: "They covered the Earth with their shields and themselves with glory"- Ular Yerni o'zlarining qalqonlari va sharaflari bilan egalladilar. Keyinchalik Uilyam Shekspir o'zining "Yuliy Sezar" asarida zeugmaga bir necha marotaba murojaat qilgan. 18-19 asrlar adabiyotida ham zeugma keng qo'llanishda davom etdi, Aleksandr Pop va Charles Dikenslar bu vositadan ma'noni kuchaytirish, yumor va kinoya yaratishda samarali foydalandilar.

Zeugma atamasi stilistik vosita sifatida 1991 yilda Bernard Dupriezning "Adabiy vositalar lug'ati" asarida tilga olingan va u sillepsis va zeugmani farqlash qiyinligi haqida fikr yuritgan. I.V. Arnold sillepsis va zeugma tushinchalarini farqlab quyidagicha tushintiradi: He took his hat, his umbrella and the purse out of the host's pocket (sillepsis) – U mehmonning cho'ntagidan shlyapasini, soyabonini va hamyonini oldi. Gapdan anglashilgan mazmun olmoq fe'li bilan ifodalanyapti, faqat bir ma'noda qo'llanyapti. He took his hat and his leave (zeugma) – U shlyapasini oldi va ketdi. Take a leave – ingliz tilida ketmoq ma.nosini ifodalaydi va bu gapda olmoq, shlyapa va ketmoq so'zlari boshqa – boshqa ma'noni anglatish uchun qo'llangan.

O'zbekistonda stilistika fani XX asrning 50-yillarida boshlab tilshunoslikning eng qiziqarli mavzusiga aylandi. O'zbek tili stilistikasining tamal toshlarini qo'ygan Ayub G'ulomov, Shonazar Shoabdurahmonov, Ya.D. Pinxasov, M. Po'latov, R. Qo'ng'urov, Muhammadrizo Husainov kabi olimlar badiiy adabiyot tilini o'rganishga bag'ishlangan qator maqolalar e'lon qildilar.

NATIJALAR

Zeugma stilistik vosita sifatida ingliz adabiyotida uzoq o'tmishga ega bo'lsada, o'zbek adabiyotida XX asrda keng foydalana boshlanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, A. Qahhor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, P. Qodirov asarlarida turli xil stilistik vositalardan xususan, zeugmadan samarali foydalanganlar.

Zeugmaning ingliz tilida qo'llanish doirasi o'zbek tilidan nisbatan kengroq, xususan ingliz tilidagi reklama matnlarida, ommaviy axborot vositalari materiallarida va kundalik hayotda ko'p uchraydi.

MUHOKAMA

Shuningdek, quyidagi misollar orqali tahlil qilishimiz mumkin: Yigit har safar u bilan uchrashuvga chiqqanida unga aqli va hamyonini ochdi. -He opened his mind and his wallet every time he went out with her. Ushbu misol orqali yigit qiz bilan uchrashuvda juda sahiy va g'amxo'r ekanligi anglashiladi. Yoki boshqa misolda: U meni olib ketish uchun kelganida, men unga eshikni va yuragimni ochdim- When he

came to pick me up, I opened my door and my heart to him. Qiz eshikni ochish bilan birga unga muhabbatini namoyish qilganligi tushiniladi. Adabiyotda ham zeugma eng ko'p foydalaniladigan stilistik unsurlardan biri hisoblanib, ko'plab yozuvchilar zeugmaga murojaat qilgan. Xususan, Jeyn Ostin o'zining unutilmas, abadiy hikoyalari bilan mashhur. "Andisha va g'urur" romanida u asarga bir nechta zeugma misollarini ham qo'shadi.

"Biroq vaqt va uning xolasi sekin harakat qildi - va uning sabr-toqati va g'oyalari suhbat tugashidan oldin deyarli yo'qoldi".

Fikrni mazmunli yetkazishda, Mark Tven usta edi. Qarang, "Tom Sovyerning sarguzashtlari" asaridan olingan ushbu parchada zeugmadan qanday foydalangan.

"Ular bir-birining sochlari va kiyimlarini tortib, yirtib tashlashdi, bir-birlarining burunlarini tirnadilar, va o'zlarini chang va shon-sharaf bilan bezadilar".

Zeugmalarning barchasi tom ma'noda qabul qilinishi kerak emas. Ba'zan ular hazil yoki hatto kulgili bo'lishi mumkin, bu Dikkens misolida ko'rinib turibdiki, bu yerda quchoqlash "qisqa tayoq bilan urish" degan ma'noni anglatadi:

He was alternately cudgeling his brains and his donkey.

– U galma-gal miyasini va eshagini silab qo'yardi.

Zeugma nafaqat ingliz tilida balki o'zbek tilida ham uchraydi. Adabiy asarlarda u so'z o'yini hosil qilib, nutqqa ta'sirchanlik qo'shadi. Masalan, O'tkir Hoshimov "Ikki karra ikki besh" asarida: Shodivoy bu gapi bilan onasining ko'nglini, shu bilan birga kunini ham barbod qildi- Shadivay by saying these words ruined her mother's day and her soul. Barbod qilmoq fe'li ko'ngil va kun so'ziga bog'lanib, ma'noni ajoyib tarzda kuchaytirishga hissa qo'shyapti.

So'z ustasi Said Ahmad Ufq" trilogiyasida zeugmadan mohirona foydalanadi. Ikromjon Tursunboy bilan birga o'z quvonchini ham ko'mdi.- He buried his son and his happiness.

XULOSA

Zeugma til va ma'noning o'zaro nozik ta'siridan dalolat beradi, u yaxshi qo'llanganda matnni butunlay yangi darajaga ko'taradi. Klassik asarlardan tortib to zamonaviy nasrgacha, zeugmaning qo'llanishi butun davrlar davomida o'quvchilarni hayratda qoldirgan, zavqlantirgan.

Biroq, har qanday adabiy vosita singari, uning kuchi ham ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishidadir. Yozuvchilar o'z ishlarida qaysi tilda ijod qilishdan qat'iy nazar zeugmadan foydalanayotganlarida ehtiyotkorlik bilan yondashishlari lozim, shunda u maksimal ta'sirga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Christopher Ortiz. Zeugma: Your Ultimate Guide// 2023. URL: <https://self-publishingschool.com/zeugma/#:~:text=History%20of%20zeugma%20in%20literature>
- 2.Н.Л.Байдикова Зевгма в системе стилистических приемов перечисления (типологический анализ на материале английского языка)// 2020 DOI-10.17223/15617793/451/2
- 3.Nordquist, Richard. "Zeugma (Rhetoric)." ThoughtCo, Feb. 16, 2021, [thoughtco.com/zeugma-rhetoric-1692624](https://www.thoughtco.com/zeugma-rhetoric-1692624).